Abstract: This article examines the issue of forming a creative personality in preschool children through visual arts activities in preschool educational institutions. The aim of the study is to develop methodological recommendations for fostering creative thinking in children during visual activities.

The article analyzes the pedagogical model of a creative personality and its structural components. The possibilities of developing creativity indicators such as originality, flexibility, idea fluency, and reflection are substantiated. The author proposes organizing activities based on motivational-imaginative, problem-creative, experimental (non-traditional techniques), and reflective-presentation blocks.

In addition, a monitoring system for assessing creativity development indicators is developed. The research results contribute to the development of children's creative initiative, independence, and aesthetic perception. The scientific novelty of the study lies in proposing a methodological system and a model of activities aimed at forming a creative personality in preschool children.

Key words: creative personality, creative thinking, visual arts activity, preschool education, methodological recommendations, non-traditional art techniques, creativity indicators, reflection.

Аннотация: В данной статье рассматривается проблема формирования креативной личности у детей дошкольного возраста посредством изобразительной деятельности в дошкольных образовательных организациях. Цель исследования заключается в разработке методических рекомендаций по развитию креативного мышления детей в процессе изобразительной деятельности.

В статье анализируется педагогическая модель креативной личности и её структурные компоненты. Обоснованы возможности развития таких показателей креативности, как оригинальность, гибкость мышления, поток идей и рефлексия. Автор предлагает организовывать занятия на основе мотивационно-воображаемого, проблемно-творческого, экспериментального (нетрадиционные техники) и рефлексивно-презентационного блоков.

Также разработана система мониторинговых показателей для оценки уровня развития креативности. Результаты исследования способствуют развитию творческой инициативы, самостоятельности и эстетического вкуса у детей. Научная новизна статьи заключается в разработке методической системы и модели занятий, направленных на формирование креативной личности у детей дошкольного возраста.

Ключевые слова: креативная личность, креативное мышление, изобразительная деятельность, дошкольное образование, методические рекомендации, нетрадиционные техники рисования, показатели креативности, рефлексия.

KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari sharoitida jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida insonning kreativ fikrlashi va ijodiy faoliyatga tayyorligi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy ta'lim tizimi shaxsning faqat bilim va ko'nikmalarini shakllantirish bilan cheklanmay, balki unda mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarda yechim topish, yangicha g'oyalarni ilgari surish va ijodiy faoliyat ko'rsatish qobiliyatlarini rivojlantirishni ham talab etadi. Ayniqsa, maktabgacha yosh davri shaxsning intellektual, emotsional va ijtimoiy rivojlanishida muhim bosqich hisoblanib, aynan shu davrda bolaning tasavvuri, fantaziyasi, obrazli tafakkuri va ijodiy faolligi shakllana boshlaydi. Shu sababli maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarda kreativ shaxs sifatlarini shakllantirish dolzarb pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativlikni rivojlantirishda tasviriy faoliyat alohida pedagogik imkoniyatlarga ega. Tasviriy faoliyat jarayonida bola rang, shakl va obrazlar orqali o'z tasavvurini ifodalaydi, yangi g'oyalarni yaratadi, muammoli vaziyatlarda ijodiy yechim topishga harakat qiladi hamda o'z ijodiy mahsulotini namoyon etadi. Shu bois tasviriy faoliyat orqali bolalarda kreativ shaxs sifatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik tavsiyalarni ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot ob'ekti – maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat orqali bolalarni o'qitish jarayoni.

Tadqiqot predmeti – tasviriy faoliyat asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ shaxs sifatlarini shakllantirishga qaratilgan metodlar, vositalar va metodik tavsiyalar tizimi.

Tadqiqot maqsadi – tasviriy faoliyat jarayonida bolalarda kreativ shaxs sifatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan metodik tavsiyalarni ishlab chiqish va asoslash.

Tadqiqot vazifalari:

1. Kreativ shaxs va kreativ fikrlash tushunchalarining pedagogik-psixologik mazmunini tahlil qilish.
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ shaxs sifatlarini shakllantirishning nazariy asoslarini aniqlash.
3. Tasviriy faoliyatning bolalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlarini ochib berish.
4. Tasviriy faoliyat asosida kreativ shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan metodik tavsiyalar tizimini ishlab chiqish.
5. Taklif etilgan metodik yondashuvlarning samaradorligini amaliy jihatdan asoslash.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kreativ fikrlash va ijodiy faoliyatni rivojlantirish masalasi pedagogika va psixologiya fanlarida keng o'rganilgan muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Kreativlik shaxsning yangi g'oyalarni yaratish, muammoli vaziyatlarga yangicha yondashish hamda mavjud tajribani yangi shaklda qayta ishlash qobiliyati sifatida talqin qilinadi.

Bolalarda kreativlikning shakllanishi va rivojlanishi psixologik jihatdan tasavvur, fantaziya va ijodiy faoliyat bilan uzviy bog'liqdir. L. S. Vigotskiy bolalar ijodiy faoliyatining psixologik asoslarini tahlil qilib, tasavvur va fantaziya ijodiy faoliyatning muhim omili ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, inson miyasi nafaqat oldingi tajribani saqlaydi, balki shu tajriba elementlarini yangi kombinatsiyada birlashtirib, yangi obrazlar va g'oyalarni yaratish imkoniyatiga ham ega ^[4]. Shu sababli bolalarning tasavvuri va fantaziyasini rivojlantirish ijodiy faoliyatning muhim sharti hisoblanadi.



Maktabgacha ta'lim tizimida tasviriy faoliyat bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi. T. S. Komarovaning tadqiqotlarida ta'kidlanishicha, tasviriy faoliyat (rasm chizish, loydan shakllar yasash, aplikatsiya) bolalarda estetik idrok, tasavvur, obrazli tafakkur va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Tasviriy faoliyat orqali bolalarda atrof-muhitni estetik idrok etish, rang va shakllarni his etish hamda badiiy obraz yaratish ko'nikmalari shakllanadi ^[5].

Kreativlik fenomeni shaxsning muhim sifatlaridan biri sifatida ko'plab psixologik tadqiqotlarda ham o'rganilgan. E. E. Podguzovaning fikricha, kreativlik shaxsning yuqori psixik funksiyalari rivoji asosida shakllanadigan hamda muammolarni mustaqil ko'ra olish va ularni hal qilishning yangi usullarini topish qobiliyati bilan namoyon bo'ladigan shaxsiy sifat hisoblanadi ^[6]. Tadqiqotlarda kreativlik shaxsning bilish jarayonlari, motivatsiyasi, ijtimoiy muhit va pedagogik ta'sir bilan bog'liq holda rivojlanishi ko'rsatib berilgan.

Mahalliy pedagogik tadqiqotlarda ham ijodiy faoliyatni rivojlantirish masalasi alohida o'rganilgan. Xususan, B. R. Adizov ta'lim jarayonini ijodiy tashkil etish o'quvchilarda mustaqil fikrlash va ijodiy faollikni rivojlantirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi ^[3].

Shu bilan birga, mavjud ilmiy ishlarda kreativlikni rivojlantirish masalasi ko'proq umumiy pedagogik yoki boshlang'ich ta'lim nuqtayi nazaridan o'rganilgan bo'lib, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat orqali kreativ shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan metodik tizim yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Ayniqsa, tasviriy faoliyat asosida kreativ shaxs modelini aniqlash, kreativlik indikatorlari asosida monitoring tizimini ishlab chiqish hamda mashg'ulotlarni metodik bloklar asosida tashkil etish masalalari alohida ilmiy tadqiqotni talab qiladi.

Mazkur tadqiqot aynan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat orqali bolalarda kreativ shaxs sifatlarini shakllantirishga qaratilgan metodik tavsiyalar tizimini ishlab chiqishga yo'naltirilgan bo'lib, mavjud ilmiy ishlardan farqli ravishda kreativ shaxs modeli, metodik bloklar tizimi va mashg'ulotlar namunalari taklif etishi bilan ajralib turadi.

Kreativ shaxs deganda mustaqil fikrlay oladigan, o'zining ijodiy tashabbusini erkin namoyon qiladigan, muammoli vaziyatlarda original yechim topa oladigan, turli g'oyalarni yaratish va ularni amaliy natijaga aylantirishga qodir, o'z faoliyatini anglaydigan va baholay oladigan (refleksiv) shaxs tushuniladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ shaxs sifatleri ko'proq o'yin, muloqot va tasviriy faoliyat jarayonida tabiiy tarzda namoyon bo'ladi. Chunki tasviriy faoliyat bolada erkin obraz yaratish, rang va shakl orqali his-tuyg'ularni ifodalash, real hayotni yangi talqinda qayta qurish, kompozitsiya tuzish, detal qo'shish hamda ijodiy mahsulotni taqdim etish imkonini beruvchi universal pedagogik vositadir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarda kreativ shaxsni shakllantirish metodikasini ishlab chiqishda, avvalo, "kreativ shaxs"ning pedagogik modelini aniqlashtirish hamda u qanday kompetensiyalar majmuasidan tashkil topishini belgilab olish zarur. Metodik tavsiyalar va mashg'ulotlar tizimi bolada aynan qaysi sifatlar, ko'nikmalar va psixologik-pedagogik xususiyatlarni shakllantirishga xizmat qilishini aniq ko'rsatmasa, ta'lim-tarbiya jarayonining natijadorligini baholash, monitoring qilish va ilmiy asoslash qiyinlashadi. Shu sababli tadqiqot doirasida kreativ shaxs profili nafaqat nazariy talqin, balki amaliy-mezonli yondashuv asosida ishlab chiqildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Kreativ shaxs (maktabgacha yoshdagi bola kontekstida) deganda tasviriy faoliyat jarayonida o'z g'oyasini mustaqil yaratishga intiladigan, yangicha tasavvur va obrazlar hosil qila oladigan, muammoli vaziyatlarda moslashuvchan yondashadigan, ijodiy tajribadan qo'rqumaydigan, o'z faoliyatini anglaydigan va izohlab bera oladigan shaxs tushuniladi. Bunday shaxsning shakllanishi bolada tasavvur va tafakkurning uyg'un rivojlanishi, emotsional erkinlik, ijodiy tashabbus va ijtimoiy muloqotning faollashuvi bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Shuning uchun kreativ shaxs modeli integrativ xarakterga ega bo'lib, kognitiv (bilish), emotsional-irodaviy, motivatsion va kommunikativ omillarni birlashtiradi.

Kreativ shaxsning pedagogik modeli quyidagi tarkibiy komponentlar asosida izohlanadi: motivatsion-qadriyatli komponent, kognitiv-kompetensiyaviy komponent, faoliyat-amaliy komponent, emotsional-irodaviy komponent, kommunikativ-kompetensiyaviy komponent hamda refleksiv-baholovchi komponent. Har bir komponent tasviriy faoliyat jarayonida o'ziga xos ko'rsatkichlar orqali namoyon bo'ladi va shunga mos ravishda kompetensiyalar tizimi shakllanadi (1-jadval).

1-jadval

№	Komponent nomi	Mazmuni	Shakllanadigan kompetensiyalar
1	Motivatsion-qadriyatli komponent	Bolaning tasviriy faoliyatga qiziqishi va ijodiy faoliyatdan zavqlanishi	Ijodiy qiziqish, tashabbuskorlik, yangilikka ochiqlik
2	Kognitiv-kompetensiyaviy komponent	Kreativ fikrlashni ta'minlovchi bilish jarayonlari (tasavvur, fantaziya, obrazli tafakkur)	Obrazli fikrlash, moslashuvchan fikrlash, muammo yechish



3	Faoliyat-amaliy komponent	Tasviriy faoliyat jarayonida amaliy ko'nikmalarni namoyon etish	Material va texnikani tanlash, noan'anaviy usullarni qo'llash
4	Emotsional-irodaviy komponent	Ijodiy faoliyat jarayonida emotsional erkinlik va qat'iyat	O'z his-tuyg'ularini ifodalash, sabr-toqat, xatodan qo'rqmaslik
5	Kommunikativ komponent	Guruhdagi ijodiy muloqot va hamkorlik	Fikr almashish, jamoaviy ijod, boshqalarning ishiga hurmat
6	Refleksiv-baholovchi komponent	O'z ijodiy faoliyatini tahlil qilish va baholash	O'z ishini izohlash, xulosa chiqarish, o'zini baholash

Yuqoridagi komponentlar asosida maktabgacha yoshdagi bola uchun kreativ shaxs profili quyidagi umumiy kompetensiyalar majmuasini o'z ichiga oladi: ijodiy tashabbuskorlik va qiziqish, yangicha fikrlash (originallik va g'oyalar oqimi), variantli yondashuv (moslashuvchanlik), ijodiy mustaqillik (tanlov va rejalar), ijodiy tajriba (noan'anaviy texnikalarda sinov), detallashtirish va boyitish (kompozitsiya va mazmun), hamkorlik va muloqot (ijtimoiy kreativlik), refleksiya (o'zini anglash va izohlash), emotsional ifoda va estetik did. Mazkur kompetensiyalar tizimi kreativ shaxsni shakllantirishning mazmuniy mezonlari sifatida ham xizmat qiladi va ishlab chiqilgan monitoring indikatorlari (originallik, moslashuvchanlik, g'oyalar oqimi, detallashtirish, mustaqillik, refleksiya) bilan mantiqan uyg'unlashadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyatga o'rgatish jarayonida bolalarda kreativ shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar tizimini ishlab chiqish tasodifiy yondashuv asosida emas, balki ilmiy-metodik tamoyillar hamda pedagogik talablar asosida amalga oshirilishi lozim. Kreativlikni rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlar tizimi, bir tomondan, bolaning psixologik rivojlanish qonuniyatlari va yosh xususiyatlariga mos bo'lishi, ikkinchi tomondan esa amaliyot sharoitida real tatbiq etilishi mumkin bo'lgan, izchil, bosqichli hamda mezonli baholash bilan ta'minlangan metodik kompleks sifatida shakllantirilishi zarur.

Mashg'ulotlar tizimini loyihalash tamoyillari deganda tasviriy faoliyatning mazmuni, shakllari, metodlari, vositalari hamda monitoring mexanizmlarini tashkil etishda qo'llaniladigan ilmiy-pedagogik qoida va talablar majmui tushuniladi. Ushbu tamoyillar izchil amalga oshirilganda tasviriy faoliyat mashg'ulotlari bolalarning kreativ fikrlashi va kreativ shaxs sifatlarini shakllantiruvchi samarali pedagogik jarayonga aylanadi.

Maqsadga yo'naltirilganlik tamoyiliga ko'ra mashg'ulotlar tizimi aniq maqsad va kutiladigan natijalar bilan loyihalanadi. Har bir mashg'ulot "faqat rasm chizish" yoki "bo'yash" bilan cheklanmay, bolalarda kreativ fikrlashning muayyan komponentini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik vosita sifatida rejalashtiriladi. Bunda mashg'ulot maqsadi kreativlik indikatorlari (originallik, moslashuvchanlik, g'oyalar oqimi, detallashtirish, mustaqillik, refleksiya) bilan bog'lanadi, kutiladigan o'zgarishlar oldindan belgilanadi va yakuniy bosqichda shu o'zgarishlar refleksiya hamda monitoring orqali qayd etiladi.

Shaxsga yo'naltirilganlik tamoyilida bola ta'lim jarayonining markaziy subyekti sifatida qaraladi. Mashg'ulotlar tizimi bolalarning individual qiziqishi, qobiliyati, rivojlanish sur'ati va ehtiyojlarini inobatga olgan holda loyihalalanadi. Tarbiyachi "tayyor namunaga ergashtiruvchi" emas, balki yo'naltiruvchi va qo'llab-quvvatlovchi bo'lib, bolaga erkin tanlov (rang, syujet, texnika, detal) imkonini beradi. Natijadan ko'ra jarayonni rag'batlantirish, differensial yordam ko'rsatish va har bir bolaning ijodiy uslubini hurmat qilish ushbu tamoyilning metodik talablari hisoblanadi.

Variativlik va ochiqlik tamoyili mashg'ulotlarda ochiq ijodiy topshiriqlar ustuvor bo'lishini talab qiladi. Ochiq topshiriqlarda bitta "to'g'ri javob" bo'lmaydi; bola bir nechta yechim variantlarini ishlab chiqadi, ijodiy tanlov qiladi va tasvirni turlicha talqin etadi. Tarbiyachi "shunday chiz" yo'riqnomasi o'rniga "qanday variantlar bo'lishi mumkin?" savolini qo'yadi, bola esa izlanish va tajriba orqali o'z g'oyasini shakllantiradi.

Faoliyatga asoslanganlik tamoyiliga ko'ra maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativlik bevosita amaliy faoliyat jarayonida rivojlanadi. Shu bois mashg'ulotlar "ko'rsatib berish va takrorlash"ga emas, bolaning sinab ko'rishi, tajriba qilishi, o'zgartirishi va kashf etishiga tayangan holda tuziladi. Noan'anaviy texnikalarni sinash, materiallarni solishtirish, rasmni boyitish va faoliyat davomida yangi yechim topish aynan shu tamoyilning amaliy ifodasidir.

Muammolilik tamoyili kreativ fikrlashni kuchaytiruvchi asosiy omillardan biri sifatida muammoli vaziyatlarni mashg'ulotlar tizimiga kiritishni talab qiladi. Mashg'ulotda "ijodiy qiyinchilik" elementi bo'lishi, bola muammoni sezishi va yechimni mustaqil izlashi zarur. Masalan, material cheklovi, noodatiy shart yoki "bir rasmda ikki faslga ko'rsat" kabi vaziyatlar bola tafakkurini faollashtirib, moslashuvchan fikrlash va variantlilikni rivojlantiradi.

Bosqichlilik va izchillik tamoyili mashg'ulotlar tizimini oddiydan murakkabga qarab qurishni, topshiriqlarni bosqichma-bosqich murakkablashtirishni nazarda tutadi. Dastlab motivatsion va erkin tasvirlashga yo'naltirilgan mashg'ulotlar, keyin muammoli vaziyatli topshiriqlar, so'ng murakkab kompozitsion va kichik loyiha ishlari kiritiladi. Yakuniy bosqichlarda esa taqdimot va refleksiya orqali umumlashtirish amalga oshiriladi. Bu izchillik kreativ fikrlash dinamikasini barqaror oshiradi.



Integratsiyalashganlik tamoyili tasviriy faoliyatni alohida ajratilgan mashg'ulot sifatida emas, balki nutq rivoji, o'yin, musiqa, tabiat kuzatuv va dramatisatsiya bilan uyg'unlashtirishni talab qiladi. Ertak asosida rasm chizish, musiqa tinglab emotsional rang tanlash, tabiatni kuzatib, so'ng fantaziya bilan boyitish kabi integratsiyalar tasavvur va tafakkur uyg'unligini kuchaytiradi.

Emotsional qulaylik va xavfsizlik tamoyili bolada xatodan qo'rqmaslik, erkin fikrlash va o'ziga ishonchni ta'minlashni metodik talab sifatida belgilaydi. Tarbiyachi tanqid o'rniga qo'llab-quvvatlovchi muloqot usullaridan foydalanishi, "noto'g'ri" degan baholashni cheklab, "yana boshqa variant bo'lishi mumkin" yondashuvini qo'llashi zarur. Har bir ishni qadrlash, ijodiy urinishni rag'batlantirish va psixologik iqlimni ijobiy saqlash kreativ shaxs rivoji uchun asosiy shart hisoblanadi.

Refleksivlik tamoyili mashg'ulot yakunida refleksiya va taqdimotni majburiy bosqich sifatida loyihalashni talab qiladi. Bola "men nimani chizdim?", "nega shunday tanladim?", "yana qanday bo'lishi mumkin?" kabi savollar orqali o'z tanlovini anglaydi, tajribani umumlashtiradi va keyingi ijodiy faoliyatga motivatsiya oladi. "Galereya" ko'rinishidagi taqdimot, mini-nutq va ijobiy fikr bildirish refleksiyani kuchaytiradi.

Monitoring va mezonlilik tamoyili mashg'ulotlar tizimida baholash jarayonining oldindan rejalashtirilishini, indikatorlar va darajalar orqali o'lchanishini talab qiladi. Bunda kuzatuv varaqasi (diagnostik karta), kreativ rubrika (past-o'rta-yuqori), portfolio hamda boshlang'ich-yakuniy taqqoslash vositalari tizimli qo'llanadi. Bu yondashuv natijani subyektiv bahodan chiqarib, ilmiy-mezonli tahlilga olib keladi.

Resurs va muhitni ta'minlash talabi esa mashg'ulotlar tizimi samarali bo'lishi uchun zarur vositalar va sharoitlar (an'anaviy va noan'anaviy materiallar, "ijod burchagi", didaktik kartalar, ko'rgazma joyi, ishlarni saqlash tizimi) bilan ta'minlanishini nazarda tutadi. Resurslar mavjud bo'lgan muhitda bola erkin tanlov qiladi, tajriba o'tkazadi va ijodiy natijaga erishadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat orqali bolalarda kreativ shaxs sifatlarini shakllantirish metodikasini amaliyotga tatbiq etish uchun mashg'ulotlar tizimini maqsadli, bosqichli va izchil tashkil etish talab etiladi. Bunda mashg'ulotlarning mazmuni tasodifiy tanlanmasdan, kreativ shaxs profilida belgilangan kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik bloklar asosida tizimlashtirilishi muhim. Kreativ fikrlash va kreativ shaxs sifatleri bir yo'nalishdagi mashg'ulotlar bilan emas, balki turli metodik vazifalarni qamrab oladigan kompleks ta'lim tizimi orqali shakllanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mashg'ulotlar tizimini bloklar bo'yicha tashkil etishning metodik mohiyati shundan iboratki, har bir blok kreativ fikrlashning muayyan komponentlarini faollashtirishga xizmat qiladi, bloklar o'zaro mantiqiy ketma-ketlikda qo'llanadi hamda yakunda bolalarda ijodiy mustaqillik, originallik, moslashuvchanlik, detallashtirish, refleksiya va ijtimoiy ijodkorlik kabi kompetensiyalarni izchil shakllantirishga olib keladi. Shu nuqtayi nazardan, mashg'ulotlar tizimi to'rtta metodik blok asosida loyihalandi: A) motivatsion-tasavvuriy blok, B) muammoli-ijodiy blok, C) noan'anaviy texnikalar bloki, D) refleksiv-taqdimot bloki.

A-blok. Motivatsion-tasavvuriy mashg'ulotlar bloki. Motivatsion-tasavvuriy blok mashg'ulotlar tizimining boshlang'ich, yo'naltiruvchi bosqichi bo'lib, unda bolalarda tasviriy faoliyatga qiziqish, ijodiy kayfiyat hamda fantaziya va tasavvur jarayonlari faollashtiriladi. Mazkur blokning metodik ahamiyati shundaki, u bola ongida ijodiy faoliyatga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirib, keyingi bloklar uchun psixologik va bilish asoslarini tayyorlaydi.

Ushbu blokda tarbiyachi bolaning "ijodiy kirish holati"ni yaratadi: syujetli motivatsiya, emotsional fon, erkin tasvirga undovchi savollar va assotsiativ mashqlar orqali bolada g'oya paydo bo'lishi tezlashadi. Natijada bola tasviriy faoliyatga "shablon bajarish" sifatida emas, "ijodiy izlanish" sifatida kirishadi.

Blokning mazmunida ertak va voqea asosida rasm chizish, "Nima bo'lardi agar...?" turidagi savollar, dog'dan obraz topish, rang orqali his-tuyg'uni ifodalash kabi yo'nalishlar ustuvor bo'ladi. Bu jarayonlarda bolalarda ijodiy faollik ortadi, g'oya yaratish faollashadi, originallikning boshlang'ich ko'rinishlari kuzatila boshlaydi. Demak, A-blok natijasida bolalar tasviriy faoliyatga erkin kirisha oladi va o'z g'oyasini yaratishga tayyor holatga keladi.

B-blok. Muammoli-ijodiy mashg'ulotlar bloki. Muammoli-ijodiy blok kreativ shaxsni shakllantirishda eng muhim metodik bloklardan biri hisoblanadi. Chunki kreativ fikrlashning asosiy belgilaridan biri muammoli vaziyatlarda yangicha yechim topa olishdir. Mazkur blokda tasviriy faoliyat jarayoniga muammo elementi kiritilib, bola "tayyor yo'l" bilan emas, fikrlash orqali o'z ijodiy yechimini topishga yo'naltiriladi.

Ushbu blok bolalarning tafakkur operatsiyalarini (analiz, sintez, taqqoslash, moslashtirish, rejalash) faollashtiradi hamda kreativ fikrlashning moslashuvchanlik komponentini kuchaytiradi. Masalan, cheklangan sharoitda irod qilish ("faqat ikki rang bilan chiz"), muqobil variantlar ishlab chiqish ("bitta predmetni uch xil talqin qil"), yoki kompozitsion muammolarni hal qilish ("rasm markazini top, fon va obyekt nisbatini tanla") kabi vazifalar bolaning fikrlashini tartibga soladi va ijodiy yechimni ongli qurishga olib keladi.



B-blok natijasida bolalarda variantlilik va moslashuvchanlik oshadi, muammo yechish tajribasi shakllanadi, rasm mazmuni mantiqan boyiydi hamda strukturaviy jihatdan tartibga tushadi. Ya'ni kreativ fikrlash faqat fantaziya emas, balki "yechim topish" darajasida namoyon bo'la boshlaydi.

C-blok. Noan'anaviy texnikalar asosidagi mashg'ulotlar bloki. Noan'anaviy texnikalar bloki kreativ fikrlashni kuchli faollashtiruvchi metodik blok bo'lib, u bolalarning ijodiy tajribasini kengaytiradi va erkin eksperiment qilishga yo'naltiradi. Mazkur blokda tasviriy faoliyat faqat qalam va bo'yoq bilan cheklanmaydi; kollaj, monoprint, gubka, ip, tabiiy materiallar, tuzli bo'yoq kabi innovatsion usullar orqali tashkil etiladi. Bu esa bolada kutilmagan effekt va natija yuzaga keltirib, kreativ fikrlashni tabiiy rag'batlantiradi.

C-blokning metodik ahamiyati shundaki, noan'anaviy texnikalarda bola ko'pincha "tayyor natijani" oldindan bilmaydi; u sinaydi, xatoni tajriba sifatida qabul qiladi, o'zgartiradi va yangicha tasviriy ifoda topadi. Natijada originallik kuchayadi, detallashtirish ortadi, sensor tajriba orqali tasavvur imkoniyatlari kengayadi, tasviriy ifoda vositalari banki boyiydi.

Shu tariqa C-blok natijasida bolalarda shablondan chiqish, tajriba qilish, yangi usulni sinash va ijodiy eksperiment madaniyati shakllanadi.

D-blok. Refleksiv-taqdimot mashg'ulotlar bloki. Refleksiv-taqdimot bloki mashg'ulotlar tizimining yakunlovchi, natijani mustahkamlovchi bosqichi bo'lib, unda bola o'z ijodiy ishini tahlil qiladi, izohlaydi, taqdim etadi hamda boshqalarning ishidan xulosa chiqaradi. Ushbu blok kreativ shaxs modelidagi refleksiv-baholovchi komponentni shakllantiradi va bolani ijodiy faoliyatga ongli munosabat bildirishga o'rgatadi.

D-blok doirasida "galereya" usuli, mini-taqdimot ("men shuni chizdim, chunki..."), refleksiv savollar ("yana boshqacha bo'lishi mumkinmi?"), portfolio asosida ishlarni tartiblash kabi shakllar qo'llanadi. Bu jarayon bolada nutqiy ifoda, kuzatuvchanlik, ijodiy tanlovni asoslash va o'zini baholash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, ijodiy ishlarning birgalikda ko'rib chiqilishi kommunikativ kompetensiyalarni kuchaytirib, ijtimoiy kreativlikni ham shakllantiradi.

D-blok natijasida bola o'z ijodiy tajribasini anglaydi, o'sishni sezadi va keyingi faoliyatga ongli motivatsiya bilan kirishadi. Ya'ni kreativ shaxs sifatleri barqarorlashadi va mustahkamlanadi.

Bloklar o'rtasidagi metodik ketma-ketlik. Mazkur bloklar alohida-alohida ishlatilmaydi, balki bir-birini to'ldiruvchi izchil tizim sifatida qo'llanadi. Ularning umumiy mantiqiy ketma-ketligi quyidagicha: motivatsiya va tasavvur → muammoli ijod → noan'anaviy tajriba → refleksiya va taqdimot. Aynan shu ketma-ketlik orqali bolalarda kreativ shaxsning motivatsion, kognitiv, amaliy, emotsional hamda refleksiv komponentlari bosqichma-bosqich rivojlanadi.

Namuna mashg'ulotlar ishlanmasi (konspektlar)

1-mashg'ulot. "Sehrli daraxt" (Fantaziya va originallik)

Yosh guruhi: 5–6 yosh

Mashg'ulot turi: Rasm chizish (open-ended)

Maqsad: bolalarda originallik va fantaziyaning rivojlantirish, obraz yaratish ko'nikmasini shakllantirish.

Vazifalar:

- "oddiy daraxt"dan farqli yangi obraz yaratish;
- ranglar orqali his-tuyg'uni ifodalash;
- detallar qo'shish orqali rasmni boyitish.

Jihozlar: qog'oz, guash/akvarel, mo'yqalam, rangli qalam, salftetka.

Jarayon:

1. Motivatsiya: "Sehrli o'rmonda daraxtlar oddiy emas. Ular gapiradi, kuladi, uchadi..."
2. Ochiq topshiriq: "Sehrli daraxtni o'zing xohlagancha chiz."
3. Mustaqil ijod: bolalar rasm chizadi, tarbiyachi savollar bilan yo'naltiradi:
 - "Daraxtning barglari qanday bo'ladi?"
 - "U nimani sevadi?"
4. Mini-taqdimot: har bola 1–2 gap bilan rasmni izohlaydi.
5. Refleksiya: "Eng yoqqan joyi qaysi? Nega?"

Baholash (indikator):

- Originallik – noodatiy g'oya;
- Detallashtirish – elementlar ko'pligi;
- Refleksiya – izohlash darajasi.

2-mashg'ulot. "Dog'dan obraz top" (Assotsiatsiya va moslashuvchanlik)

Yosh guruhi: 4–6 yosh

Turi: Noan'anaviy texnika (dog'li rasm)



Maqsad: assotsiativ fikrlash, moslashuvchanlik va originallikni rivojlantirish.

Jihozlar: bo'yoq, qog'oz, pipetka yoki mo'yqalam, salfetka.

Jarayon:

1. Motivatsiya: "Bugun rasm bizga yordam beradi – dog'lar ichidan obraz topamiz."
2. Amaliy qism: tarbiyachi bo'yoqdan 2–3 dog' tushiradi, bola qog'ozni buklab ochadi.
3. Ochiq topshiriq: "Dog' nimaga o'xshaydi? Uni rasmga aylantir."
4. Ijod: bola dog'ni qush, baliq, odamcha, robot, gulga aylantiradi.
5. Refleksiya: "Sen qanday obraz topding? Boshqalar qanday topdi?"

Baholash:

- Originallik
- Moslashuvchanlik (variantlar)
- G'oya oqimi

3-mashg'ulot. "Ikki rang bilan chizaman" (Muammoli yondashuv)

Yosh: 5–7 yosh

Turi: PBL (muammoli)

Maqsad: cheklangan sharoitda kreativ yechim topish, moslashuvchanlikni oshirish.

Jihoz: 2 ta rangli bo'yoq, qog'oz, mo'yqalam.

Jarayon:

1. Muammo: "Bugun faqat 2 rang bor. Lekin rasm chiroyli bo'lishi kerak."
2. Topshiriq: "Tabiat manzarasini 2 rang bilan tasvirla."
3. Variant izlash: bolalar rangni aralashtirib yangi tus olishga urinadi.
4. Ijod: fon, obyekt va detal ishlanadi.
5. Taqdimot: "Men shu yo'l bilan yechim topdim..."

Baholash:

- Moslashuvchanlik
- Muammo yechish
- Detallashtirish

4-mashg'ulot. "Kelajakdagi transport" (Fantastik syujet)

Yosh: 5–6 yosh

Maqsad: originallik, g'oyalar oqimi, "nima bo'lardi agar" fikrlashni rivojlantirish.

Jihoz: qog'oz, rangli qalam, flomaster.

Jarayon:

1. "Kelajakda mashinalar qanday bo'ladi?"
2. Ochiq topshiriq: "Uchadigan, suzadigan yoki robot mashina chiz."
3. Detallar: tugma, qanot, energiya manbai, oynalar.
4. Taqdimot + refleksiya.

Baholash:

- originallik
- g'oya oqimi
- detallashtirish

5-mashg'ulot. "Tabiatdan ilhomlangan rasm" (Kuzatuv + fantaziya)

Yosh: 4–6 yosh

Maqsad: real idrok va fantaziyani uyg'unlashtirish.

Jihoz: barglar, gullar, qog'oz, bo'yoq.

Jarayon:

1. Kuzatish: barg shakli, rang, tomirlar.
2. Topshiriq: "Bargni nimaga aylantirish mumkin?"
3. Ijod: bargdan qush, baliq, kapalak obraz.
4. Refleksiya: "Nima uchun shuni tanlading?"

Baholash:

- originallik
- moslashuvchanlik
- refleksiya



6-mashg'ulot. "Musiqqa eshitib rasm yaratamiz" (Emotsional ifoda)

Yosh: 5–7 yosh

Maqsad: emotsional tasavvur, ranglar orqali ifoda, kreativ tafakkurni rivojlantirish.

Jihoz: musiqa, bo'yoq, qog'oz.

Jarayon:

1. Musiqa tinglanadi (1–2 daqiqa).
2. Topshiriq: "Musiqani rang bilan chiz."
3. Tarbiyachi savoli: "Bu musiqa qanday kayfiyat?"
4. Refleksiya: "Men shu rangni tanladim, chunki..."

Baholash:

- originallik
- detallashtirish
- refleksiya

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan nazariy tahlillar hamda metodik yondashuvlar asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat orqali bolalarda kreativ shaxs sifatlarini shakllantirish muhim pedagogik vazifa ekanligi aniqlandi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tasviriy faoliyat bolalarda tasavvur, fantaziya, obrazli tafakkur va ijodiy tashabbusni rivojlantirishda samarali pedagogik vosita bo'lib xizmat qiladi. Mazkur faoliyat jarayonida bolalar erkin fikrlash, muammoli vaziyatlarda ijodiy yechim topish hamda o'z g'oyalarini badiiy obrazlar orqali ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Tadqiqot davomida kreativ shaxsning pedagogik modeli ishlab chiqilib, uning motivatsion-qadriyatli, kognitiv-kompetensiyaviy, faoliyat-amaliy, emotsional-irodaviy, kommunikativ hamda refleksiv-baholovchi komponentlari asoslab berildi. Ushbu komponentlar asosida bolalarda kreativ shaxs sifatlarini shakllantirishga xizmat qiluvchi metodik tavsiyalar tizimi taklif etildi.

Shuningdek, tasviriy faoliyat mashg'ulotlarini metodik bloklar (motivatsion–tasavvuriy, muammoli–ijodiy, noan'anaviy texnikalar hamda refleksiv–taqdimot bosqichlari) asosida tashkil etish bolalarda kreativ fikrlash indikatorlari – originallik, moslashuvchanlik, g'oyalar oqimi, detallashtirish, mustaqillik va refleksiya ko'rsatkichlarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat mashg'ulotlarini kreativ fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik yondashuvlar asosida tashkil etish maqsadga muvofiq.
2. Mashg'ulotlarda ochiq ijodiy topshiriqlar, muammoli vaziyatlar va noan'anaviy tasviriy texnikalardan keng foydalanish bolalarda kreativlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.
3. Bolalarning kreativ rivojlanish darajasini aniqlash uchun monitoring indikatorlari (originallik, moslashuvchanlik, g'oyalar oqimi, detallashtirish, refleksiya) asosida baholash tizimini joriy etish tavsiya etiladi.
4. Tasviriy faoliyat jarayonida bolalarning erkin fikrlashi va ijodiy tashabbusini qo'llab-quvvatlovchi psixologik qulay muhit yaratish zarur.
5. Tarbiyachilar uchun tasviriy faoliyat orqali kreativlikni rivojlantirish metodikasiga oid metodik qo'llanmalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Mazkur tavsiyalar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, bolalarda kreativ fikrlashni rivojlantirish hamda kreativ shaxs sifatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-4327235>
2. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi (takomillashtirilgan ikkinchi nashr). –T., 2022. – 96 b.
3. Adizov B. R. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. –T.: Fan, 2007. – 218 b.
4. Vigotskiy L. S. Voobrazheniye i tvorchestvo v detskom vuzraste. – M.: Prosveshcheniye, 1967. – 92 b.
5. Komarova T. S. Izobrazitel'naya deyatel'nost v detskom sadu. Programma i metodicheskie rekomendatsii. – M.: Mozai-ka-Sintez, 2010. – 56 b.
6. Podguzova E. E. Kreativnost lichnosti: vozmojnosti razvitiya v usloviyax vuza. – Smolensk: SGII, 2011. – 119 b.
7. Finnish National Agency for Education. National Core Curriculum for Early Childhood Education and Care (ECEC). – Helsinki, 2022.
8. Ministry of Education Singapore. Nurturing Early Learners (NEL) Framework. – Singapore, 2022.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.